



BOSHLANG'ICH SINFLARDA LUG'AT USTIDA ISHLASH

Qo'qon davlat universiteti
Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Shahzoda A'zamova

208-guruh talabasi **Saminova Dilzoda**

Annotasiya: Boshlang'ich sinflarda lug'at ustida ishlash o'quvchilarning nutqini rivojlantirish, tushunish qobiliyatini oshirish va fikrlash jarayonini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyliklarini kengaytirishga qaratilgan uslubiy yondashuvlar, metodik tavsiyalar va ularning samaradorligi tahlil qilinadi. Lug'at bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning ongli ravishda so'zlar va ularga bog'liq tushunchalarni egallashiga alohida e'tibor beriladi. Maqola natijasida boshlang'ich ta'limda lug'at ustida ishlashning ahamiyati va uning pedagogik amaliyotdagi o'rni ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: lug'at, boshlang'ich ta'lim, nutq rivojlanishi, so'z boyligi, metodika, pedagogik texnologiya, tushunish qobiliyati, o'quvchi, so'z ma'nosi, lug'at ustida ishlash.

Boshlang'ich ta'lim - bu o'quvchilarning umumiy dunyo qarashini shakllantirish va ularning intellektual faoliyatini rivojlantirish uchun asosiy bosqich hisoblanadi. Bunda o'quvchilarning lug'at zaxiralari (so'z boyligi) ularga beriladigan barcha fanlar uchun asosiy vosita sanaladi. O'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish va lug'at bilan ishlash —bu faqatgina til darslariga xos bo'lgan vazifa emas, balki barcha fanlarning o'zlashtirishiga oid jarayonning bir qismidir.

Lug'at ustida ishlash orqali o'quvchilarning fikrlash qobiliyati, nutq madaniyati, to'g'ri gapirish ko'nikmalari va dunyo qarashlari shakllanadi. Shuningdek, lug'at bilan ishlash natijasida o'quvchilarning ijtimoiy hayotga moslashuvi ham osonlashadi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda lug'at ustida ishlashning uslubiyati, uning ahamiyati va o'quv jarayonidagi roli chuqurroq o'rganiladi.

Boshlang'ich sinflarda lug'at ustida ishlash —bu o'quvchilarning nutqini rivojlantirish, tushunish qobiliyati oshirish va ularning umumiy dunyo qarashini shakllantirish uchun muhim omildir. Lug'at boyligi —bu o'quvchilarning til bilan ishlash malakasining asosiy ko'rsatki hisoblanadi. O'quvchilar so'zlar orqali atrofidagi olamni tushunish, so'z fikrlarini ifodalash va odamlar bilan muloqot qilish imkoniga ega bo'ladilar. Shuning uchun ham, lug'at zaxiralari keng bo'lgan o'quvchilar fikr mulohazalarini aniq va to'liq ifodalaydi, matnlarni osonroq tushunadi va boshqa fanlarni o'rganish jarayonida kamroq qiynaladi.

Lug'at boyligi kam bo'lgan o'quvchilar esa o'z fikrlarini aniq va to'liq ifodalay olmaydi. Bu ularning o'qish va yozish malakalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, o'quvchi yangi so'zlarning ma'nosi va kontekstda qo'llashini bilmasa, uning darslik matnlarini o'qib tushinishi qiyinlashadi. Natijada u o'quvchi u

materiallarni chuqurroq o‘zlashtira olmaydi va bo‘lim darajasi pasayadi. Shuning uchun ham Boshlang‘ich sinflarda lug‘at ustida ishlash —bu faqatgina til darslariga xos emas, balki barcha fanlarni o‘zlashtirishga xizmat qiladigan universal vosita sanaladi. Lug‘at ustida ishlash jarayoni orqali o‘quvchilar faqat yangi so‘zlarni ehanglabgina qolmay, balki ularning ma‘nolarini qo‘llanish sohalarni va sintaktik jihatdan to‘g‘ri ishlatilishini ha o‘rganib olishadi. Masalan, "uy"so‘zi turli kontekslarda "turar joy" ,"oilaviy atmosfera"yoki "ta‘lim muassasalari" sifatida ishlatilishi mumkin. Bunday misollar orqali o‘quvchilar so‘zlarning ko‘p ma‘noli ekanini anglaydilarva o‘lardan foydalanishni o‘rganadilar. Bu esa o‘quvchilarning til bilan ishlash malakalarini mustahkamlashga yordam beradi.

O‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytirish orqali ularning ijtimoiy hayotga moslashuv jarayoni ham osonlashadi. Chunki nutq —bu insonlarning atrofdagilar bilan muloqot qilishning eng asosiy vosita sanaladi. Lug‘at zaxiralari keng bo‘lgan o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va to‘liq ifodalay olish natijasida atrofdagilar bilan oson muloqot qiladi va ular bilan yaqin munosabatlar o‘rnatadi. Shuningdek, lug‘at boyligi keng bo‘lgan o‘quvchilar o‘zlarinini intellektual potentsiallarini ham to‘liq ifodalay olish imkoniyatiga egadirlar.

Boshlang‘ich sinflarda lug‘at ustida ishlash turli xil usullar orqali ishlash mumkin. Har bir usul o‘quvchilarning yoshi, qiziqishlari va o‘qitish maqsadlariga mos kelishi kerak. Quyida eng samarali deb hisoblangan usullar keltirilgan:

★ Yangi so‘zlarni tushuntirish. Dars jarayonida yangi so‘zlar kelishi tabiiydir. O‘qituvchi bu so‘zlarning ma‘nosini misollar, tasvirlar na amali mashqlar orqali tushuntirishi lozim. Masalan, "daraxt"so‘zini tushuntirishda o‘qituvchi uni rasmini ko‘rsatishi, uning turlari haqida gapirishi va undan foydalanidigan joylarini aytsa, o‘quvchilar so‘zni tezroq egallaydilar

★ So‘z ma‘nolarini ajratish. Ko‘pgina so‘zlar bir necha manolarda qo‘llanilishi mumkin. O‘quvchilarga bir so‘zning turli ma‘nolarda ishlatilishi haqida tushuncha berish zarur. Masalan,"ko‘z"so‘zi inson tanasining bir qismi, ob havo holati(ko‘z yog‘di), yoki nazar bilan bog‘liq ma‘noda ham ishlatilishi mumkin. Bunday misollar orqali o‘quvchilar so‘zlarning ko‘p ma‘noli ekanini anglaydilar.

★ Sinonimlar va antonimlar bilan ishlash:

Sinonimlar va antonimlar lug‘at boyligini kengaytirishning samarali usuli hisoblanadi. O‘quvchilarga sinonim va antonim lar lug‘at boyligini kengaytirishning samarali usuli hisoblanadi. O‘quvchilarga sinonim va antonim yordamida so‘zlarning ma‘nosi va qo‘llanish sohasi yaxshiroq tushuntiriladi. Masalan,"chiroyli"so‘zi uchun Sinonimlar (jozibador va go‘zal)va antonimlari (bezovta go‘zal emas) keltirilishi mumkin. Bu esa o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirishgayordam beradi.

★ O‘quv topshiriqlari va o‘yinlar :

Lug‘at ustida ishlash o‘quvchilarga chalkash so‘zlar, rebuslar, krossvordlar va boshqa o‘yinlar orqali qiziqarli tashkil etish mumkin. Masalan, krossvordlar yechish yechish orqali o‘quvchilar yangi so‘zlarni egallaydilar. Bunday mashqlar o‘quvchilarning diqqatini jalb qilishda yordam beradi.

★ Matn ustida ishlash:

Matnlarni o‘qish va tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar yangi so‘zlarni egallaydilar va ularni kontekstda qo‘llashini o‘rganadilar. Masalan, she'r yoki hikoya matni orqali yangi so‘zlarni tushuntirish, ularning ma'nolarini ochish va ulardan foydalanishni o‘rgatish samarali usuli biridir.

3. Lug‘at ustida ishlashning samaradorligi

Lug‘at ustida ishlashning samaradorligini baholash uchun quyidagi mezonlarni qo‘llashi mumkin.

★ O‘quvchilarning so‘z boyligini kengayishi: Lug‘at ustida ishlash natijasida o‘quvchilar yangi so‘zlarni egallaydilar va ulardan foydalanishni o‘rganadilar. Bu esa ularning so‘z boyligini kengayishiga olib keladi.

★ Yangi so‘zlarni to‘g‘ri va aniq ishlatish ko‘nikmasining shakllanishi: O‘quvchilar yangi so‘zlarni ehangabgina qolmay, balki ulardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rganadilar. Buning natijasida o‘quvchilarning nutqi boy va aniq bo‘ladi.

★ Nutq faoliyatining rivojlanishi: Lug‘at ustida ishlash orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va to‘liq ifodalay olish o‘rganadilar.

★ O‘quvchilarning va yozish malakalarini oshirish:

Lug‘at boyligi keng bo‘lgan o‘quvchilar matnlarni osonroq tushunadi va yozma nutqda ham aniqroq ifodalanadilar. Bu esa ularning o‘qish va yozish malakalarining oshishiga sabab bo‘ladi.

SHUNINGDEK, lug‘at ustida ishlash orqali o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati va dunyo qarashlari ham rivojlanadi. O‘quvchilar yangi so‘zlarni egallash orqali atrofidagi olamni olamni chuqurroq tushunadilar va o‘z fikrlarini boyroq bayon eta olishni o‘rganadilar. Bu esa ularning umumiy dunyo qarashini shakllantirishga yordam beradi .

Boshlang‘ich sinflarda lug‘at ustida ishlash o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish uchun muhim omildir. Lug‘at boyligi kengaytirilganda o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va to‘liq ifodalashga, matnlarni tushunishga va boshqa fanlarni egallashga erishadi. Lug‘at bilan ishlash jarayoni turli xil usullar, mashqlar va o‘yinlar orqali qiziqarli tarzda tashkil etishi lozim. Bu jarayon o‘quvchilarni intellektual va ijtimoiy rivojlantirishi uchun asosiy shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev,A(2018). Boshlang‘ich ta’limda nutq rivojlanishi
Toshkent:Fan va texnologiyalar
2. Boboyev , M (2019) O‘quvchilarning lug‘at boyligi kengaytirish usullari.
Toshkent: O‘zbekiston maktabi
3. Karimov, S. (2020). Pedagogik texnologiyalar va ularning tatbiq. Toshkent: Ilm va ta’lim.
4. Mirzaev , N (2017). Boshlang‘ich ta’limda nutq tarbiyasi
Samarqand: Universiteti nashriyoti